



UDK: 94(575.1)"03"

BUXORO VOHASINING MUDOFAA MEROSI: KAMPIRAK DEVORI

Nurmuxammedov Mirvoxid Xamidulla o'g'li

Namangan davlat universiteti talabasi

E-mail:nurmuhammadovmirvohidjon@gmail.com

Tel:+998 (94) 392 42 62

Annotatsiya: *Ushbu maqola Kampirak devori – Buxoro vohasining qadimiy mudofaa inshooti – tarixiy, siyosiy va madaniy ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda devorning qurilishi, uning Movarounnahr tarixidagi roli, ichki va tashqi tahdidlardagi o'rni, shuningdek, Somoniylar davrida siyosiy o'zgarishlar natijasida devorning taqdiri tahlil qilinadi. Maqola Kampirak devorini nafaqat mudofaa tizimi, balki ajdodlarimizning bunyodkorlik salohiyati va Vatanini himoya qilishga bo'lgan fidoyiligi timsoli sifatida ko'rsatadi.*

Abstract: *This article is devoted to the study of the historical, political and cultural significance of the Kampirak Wall - an ancient defensive structure of the Bukhara oasis. The study analyzes the construction of the wall, its role in the history of Transoxiana, its role in internal and external threats, as well as the fate of the wall as a result of political changes during the Samanid era. The article presents the Kampirak Wall not only as a defensive system, but also as a symbol of the creative potential of our ancestors and their dedication to protecting their homeland.*

Аннотация: *Статья посвящена изучению историко-политического и культурного значения Кампиракской стены – древнего оборонительного сооружения Бухарского оазиса. В статье анализируется строительство стены, её роль в истории Мавераннахра, роль в борьбе с внутренними и внешними угрозами, а также судьба стены в результате политических изменений эпохи Саманидов. В статье Кампиракская стена представлена не*



только как оборонительная система, но и как символ творческого потенциала наших предков и их преданности делу защиты родины.

Kirish so'zlar: *Markaziy Osiyo, Sug'd, Xitoy, Rim, Eron, Sharqiy Turkiston, Zarafshon, Amudaryo, Narshaxiy, Mas'udiy, Ismoil Somoniy.*

Introduction: *Central Asia, Sogd, China, Rome, Iran, East Turkestan, Zarafshan, Amu Darya, Narshahi, Masudi, Ismail Samani.*

Введение: *Средняя Азия, Согд, Китай, Рим, Иран, Восточный Туркестан, Зарафшан, Амударья, Наршахи, Масуди, Исмаил Самани.*

Kirish. Insoniyat tarixiy taraqqiyotining eng qadimiy bosqichlaridan boshlab, yer va hududni himoya qilish masalasi doimo davlatlar va sivilizatsiyalar hayotida hal qiluvchi omil bo'lib kelgan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo – Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgani, o'nlab qudratli imperiyalar manfaatlari tutashgan hudud bo'lgani uchun – bu makonda mudofaa inshootlari va chegara devorlari har doim strategik ahamiyat kasb etgan. Qadimgi Xitoy devori, Mesopotamiya va Baqtriya hududlarida qurilgan mudofaa chiziqlari, Eron dashtlari va Amudaryo vohasi bo'ylab qad rostlagan istehkomlar – bularning barchasi Sharq sivilizatsiyasi uchun faqat harbiy emas, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy barqarorlik timsoli bo'lgan. Ana shunday yirik mudofaa majmualaridan biri – Buxoro vohasidagi Kampirak devori bo'lib, u Markaziy Osiyoning eng qadimiy va eng keng ko'lamli himoya inshootlaridan biri sifatida ilmiy doiralarda alohida e'tirof etiladi. Bu devor nafaqat Buxoro vohasini tashqi xavflardan himoya qilish uchun bunyod etilgan, balki u o'z davrida butun Sug'd–Buxoro sivilizatsiyasining siyosiy mustaqilligi va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlagan murakkab strategik mudofaa tizimining ajralmas xalqasi bo'lgan. Kampirak devori qurilgan geografik hudud – Amudaryoga yaqin bo'lgan cho'l va dashtlar chegarasida, ko'chmanchi qabilalarning bostirib kirish yo'llarini to'suvchi eng tabiiy va strategik nuqtada joylashgan.



Markaziy Osiyoning qadimiy davlatchilik tizimida Buxoro vohasi har doim savdo, sug'orma dehqonchilik va shaharlik madaniyatining yirik markazi sifatida alohida mavqega ega bo'lgan. Amudaryo irmoqlari orqali kelgan suv bilan sug'oriladigan bu voqa o'z zamonida iqtisodiy jihatdan nihoyatda jozibali bo'lgani uchun – ko'chmanchi saklar, massagetlar, eftalitlar va turk qabilalari tomonidan muntazam bosim ostida yashagan. Aynan shunday doimiy xavf tufayli bu hududda mustahkam mudofaa devori qurish zarurati vujudga kelgan bo'lib, Kampirak devori ana shu ehtiyoj mahsuli sifatida maydonga chiqadi. Kampirak devori oddiygina baland devordangina iborat emas – u murakkab muhandislik fikrining eng yuksak namunasi, suv tarmoqlari, qarovullik minoralari, signal tizimlari va mudofaa qal'alari bilan to'ldirilgan yaxlit harbiy-istehkom tizimidir. Agar unga strategik xarita nuqtai nazaridan qaralsa, bu devor nafaqat devor sifatida, balki butun Buxoro vohasini g'arb, janub va janubi-sharqdan o'rab turgan sun'iy chegara vazifasini bajargani yaqqol ko'rinadi. Shu jihatdan olib qaralganda, Kampirak devori Buyuk Xitoy devori yoki Rim imperiyasining chegara istehkomlari bilan miqyos va harbiy maqsad jihatidan tenglashtiriladi.

Yana bir muhim jihat shundaki – Kampirak devori nafaqat harbiy ehtiyoj uchun, balki Buxoro vohasida shakllangan sug'orma dehqonchilik va shaharlik madaniyatini tashqi xavflardan himoya qilish, konlarni, karvon yo'llarini va bozorlardagi iqtisodiy barqarorlikni himoya qilish uchun ham bunyod etilgan. Demak, bu devor o'z mohiyatiga ko'ra – faqat mudofaa chizig'i emas, balki Buxoro vohasining iqtisodiy mustaqilligini asrab qolgan muhim inshootdir. Shu ma'noda, Kampirak devorini o'rganish – faqat bir tarixiy yodgorlikni emas, balki butun Markaziy Osiyoning geosiyosiy tarixini, sug'orma dehqonchilik asosidagi sivilizatsiyalarni, ko'chmanchi va o'troq dunyo to'qnashuvlarini ilmiy tahlil qilish demakdir. Ana shunday yondashuv uni nafaqat milliy meros, balki jahon sivilizatsiyalari tarixida alohida o'rin tutadigan yirik madaniy-siyosiy obida sifatida o'rganishni taqozo etadi.



Mavzuning dolzarbligi. VI–VII asrlarda, avvalgi davrlardagidek, dehqonchilik vohalari ko‘chmanchi chorvadorlar yashaydigan cho‘l hududlaridan himoyalash maqsadida devorlar bilan o‘rab qo‘yilgan. Shu davrda O‘rta Osiyo davlatlari Eron va Xitoy bilan faol savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ygan.

IX–XIII asrlarda shaharsozlik jarayonida avvalgi davrlardan meros bo‘lib qolgan vohalar – shahar va qishloqlarni himoya qilish uchun qurilgan mudofaa devorlari ta’mirlangan va qayta tiklangan. Ular uzunligi juda katta bo‘lgani uchun xalq orasida “uzun devorlar” deb atalgan. Har bir uzun devorning o‘z nomi bo‘lgan. Masalan, Toshkent va Chirchiq atrofidagi yerlarni himoya qilgan mudofaa tizimi Devori kandi pirak, xalq talaffuzida Kampir devor deb yuritilgan. Shunga o‘xshash nom Buxoro atrofidagi devorga ham nisbatan qo‘llangan. Samarqand va uning atroflarini esa xalq og‘zaki rivoyatlarida “Devori qiyomat” deb atalgan uzun mudofaa devori himoya qilgan[1].

Kampirak devori ham ana shunday qadimgi mudofaa inshootlar tizimining eng yirik va eng muhim namunalardan biri hisoblanadi. Bu devor Buxoro vohasini ko‘chmanchi qabila va chorvadorlardan himoya qilish uchun qurilgan bo‘lib, tarixiy manbalarda uning uzunligi o‘nlab chaqirimlarga cho‘zilgani qayd etiladi. Ushbu davrda Zarafshon va Amudaryo vohalarida rivojlangan shahar madaniyati tashqi bosqinlar xavfi ostida qolganligi sababli, katta hududlarni to‘liq o‘rab oluvchi chegara istehkomlari bunyod etish davlat hayoti uchun zarur bo‘lgan. Xuddi Toshkent–Chirchiq vohasidagi Devori Kandi Pirak singari, Buxoro atrofidagi Kampirak devori ham xalq orasida keyinchalik “Kampir devor” nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan.

Kampirak devori faqat bir shaharni emas, balki butun vohani – Buxoroning suvli, hosildor dehqonchilik hududlarini xavfdan himoya qiluvchi yagona chegara chizig‘i vazifasini bajargan. U orqali nafaqat turk, eftalit va boshqa ko‘chmanchi kuchlarning hujumi cheklangan, balki Buxoro karvon yo‘llari, bozorlari va qishloq xo‘jaligi tizimi ham barqaror saqlab qolinishi ta’minlangan.



Kampirak devorining sharqiy qismi hozirgi Karmana tumani markaziga tutash Qoratog' etaklaridan boshlanib, Zarafshon daryosining chap qirg'og'i bo'ylab sharqdan g'arbga tomon cho'zilgan. Tarixchilar va arxeologlar ushbu devorni "Voha devori" deb ham ataydilar. Chunki u alohida bir shahar yoki qishloqni emas, balki bir butun vohani – Zarafshon vodiysidagi keng madaniy va iqtisodiy hududni tashqi xavflardan himoya qilish uchun bunyod etilgan. Ba'zi tadqiqotchilar Kampirak devorini Buyuk Xitoy devoriga, boshqalar esa Samarqand shahri va uning atroflarini o'ragan Devori Qiyomat (Qiyomat devori) bilan qiyoslaydi. Ilmiy manbalarga ko'ra, Kampirak devori umumiy uzunligi 300 kilometrdan ortiq bo'lgan[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Kanpirak devori (yoki Devori Kanpirak, Kanpir devor) – bu Markaziy Osiyoda dehqonchilik vohalarini ko'chmanchilar hujumidan himoya qilish maqsadida barpo qilingan mudofaa inshootlari tizimining xarobalaridir.

Kampirak devori atamasining vujudga kelish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bu nomning vujudga kelish tarixi ham qiziqarli: "Kanpir" so'zi qadimiy tilshunoslikda "qazilgan xandaq" yoki "choh" ma'nosini bildiradi; talaffuzda esa "n" va "m" harflarining almashuvi kuzatiladi. "Pir" esa qadimgi payrya tilida (qadimiy turkiy til) "aylana" yoki "o'rov" degan ma'noni anglatadi. Shu bilan, kanpir so'zi aslida "xandakli, o'rovli devor" degan ma'noni bildiradi. Keyinchalik, asl ma'nosi unutilib, unga "devor" so'zi qo'shilgan va bugungi kunda xalq orasida "Kampirak devori" shaklida ishlatiladi[3].

Kampirak devorining Qiziltepa tumani hududida saqlanib qolgan qismlarida arxeologlar A. Yakubovskiy, A. Shishkin, X. Muhammadov va boshqalar qazishma ishlari olib borganlar. Ularning tadqiqotlari natijasida devor tuzilishi haqida quyidagi ilmiy ma'lumotlar aniqlandi:

Devorning poydevori shag'al aralash mustahkam tuproqdan iborat bo'lib, eni 3 metr atrofida;



Asosiy qismi paxsadan qurilgan, ayrim bo'laklari esa katta hajmli to'rtburchak xom g'ishtlardan terilgan.

Ilk va eng ishonchli ma'lumotlar X asr tarixchisi Muhammad Narshaxiyning mashhur "Buxoro tarixi" asarida uchraydi. Narshaxiyning yozishicha, Buxoro vohasini ko'chmanchi qabilalarning bosqinlaridan himoya qilish maqsadida Abu-l-Abbos Tusniy uning o'zi tomonidan Buxoro amiri bo'lib turgan Muhtadiy ibn Hammud ibn amir az-Zuhliygа Buxoro atrofigа devor oldirishni buyurdi. Bu devor hijriy 166 (milodiy 782/783) yilda bunyod etila boshlagan va hijriy 215 (milodiy 830/831) yilda, Muhammad ibn Yahyo ibn Abdulloh ibn Mansur ibn Haljad ibn Varaqning davrida yakunlangan[4]. Demak, devorning qurilishi yarim asrgа yaqin davom etgan, bu esa uning naqadar ulkan va murakkab loyiha ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, arab tarixchisi, geograf va sayyohi Mas'udiyning (tahminan 896-956) yozishicha, bu devor qadimgi Sug'd podsholari davrida bunyod etilgan. Narshaxiy keltirgan ma'lumot esa devorning keyinchalik qayta tiklangan davrigа to'g'ri keladi. Arxeologik tadqiqotlar Kampirak devori xarobalarini o'rganish orqali yozma manbalardagi ma'lumotlarni to'la tasdiqladi. Mas'udiy ta'riflagan dastlabki ko'hna devor Narshaxiy yozgan devorgа nisbatan ancha kichik maydonni egallagan. Hozirgi saqlanib qolgan qismi asl ko'rinishidagi holatidek saqlanib qolmagan. Kampirak devorining xarobalari arxeologik jihatdan shunday o'lchanadi: eni 25–35 metr, balandligi 1–3 metr, ayrim joylarda esa 4 metrgacha yetadi. Dastlabki qurilgan devorning o'lchamlari esa sezilarli darajada katta bo'lgan: kengligi 12–14 metr, balandligi 8–10 metr, uzunligi esa 336 kilometrni tashkil etgan[5]. Bunday ulkan va murakkab inshootni barpo etish o'sha davr uchun katta mablag', kuch-mehnat va yuqori darajadagi muhandislik bilimini talab qilgan. Devorning qurilishi nafaqat tashqi tahdidlardan himoya qilishgа qaratilgan bo'lsa-da, u bevosita VIII–IX asrlarda Movarounnahrni larzaga solgan ichki qo'zg'olonlar bilan ham bog'liqdir. Bu ma'lumotlar asosida ko'rinib turibdiki, devorning ishonchli manbalar asosida yoritilishi orqali biz o'zimizgа kerakli ma'lumotlartgа ega bo'lamiz. Ko'rishimiz



mumkinki, devor dastlabki bunyod etilgan davrda juda katta bo'lganligini, biroq keyinchalik tashqi omillar natijasida asta-sekin qisqarib borganligiga guvoh bo'lamiz.

Tahlil va natijalar. Somoniylar sulolasining qudratli hukmdorlaridan Ismoil Somoniy (892-907) davrida Kampirak devorining har yillik odatiy hashari to'xtatilgan va devor uzoq vaqt davomida qarovsiz qolgan. Shu davrda Amir Ismoilning kuchli va tartibli askarlari bor edi, shuning uchun u o'z hududini himoya qilishni ko'proq shaxsiy kuchi orqali amalga oshirgan. Narshaxiy yozishicha, Amir Ismoil shunday degan ekan: "Toki men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo'laman"[6]. Bu so'zlar uning o'z kuchiga bo'lgan ishonchini va devor kabi an'anaviy himoya vositalariga qaramay, shaxsiy kuch bilan hududni himoya qilishni birinchi o'ringa qo'yganini bildiradi.

Shunday qilib, Kampirak devori nafaqat mudofaa inshooti sifatida, balki Amir Ismoil davrida hududni saqlash va himoya qilishning muhim vositasi sifatida ahamiyat kasb etgan. Devorning qarovsiz qolishi va Amir Ismoilning shaxsiy askarlari orqali hududni nazorat qilishi o'sha davr ijtimoiy va siyosiy tartibini saqlashdagi muhim jihatni ko'rsatadi.

Kampirak devori shunchaki tosh va g'ishtdan iborat devor emas; u o'z davrining eng murakkab me'moriy loyihalaridan biri bo'lib, Movarounnahr tarixining eng ziddiyatli davrlarida voha hayotini himoya qilgan. Ushbu devor nafaqat mudofaa vazifasini bajarib, balki mahalliy aholi uchun markaziy hokimiyatning siyosiy qudratini ham aks ettirgan.

Ajablanarlisi shundaki, Arab xalifaligi qo'zg'olonlarni bostirishda ko'chmanchi turkiy qabilalarning yollanma kuchlaridan keng foydalangan. Shu bilan birga, ularni boshqa guruhlaridan himoya qilish zarurati ham devorning barpo etilishiga sabab bo'lgan. Bu esa o'sha davr siyosiy manzarasining naqadar murakkab va ziddiyatli bo'lganini yaqqol ko'rsatadi. Tarixiy manbalarda shuningdek, devorni



saqlash va ta'mirlash ishlari mahalliy aholi zimmasiga og'ir yuk bo'lganligi va ularning noroziligiga sabab bo'lganligi qayd etilgan.

Vaqt o'tishi bilan devorning siyosiy ahamiyati kamaydi. Somoniylar sulolasi hokimiyatni qo'lga olishi bilan mintaqada yangi siyosiy davr boshlandi. Amiri Ismoil Somoniy devorni ta'mirlashni to'xtatish haqida farmon chiqardi. Bu qaror shunchaki xo'jalik masalasi emas, balki chuqur siyosiy ma'noga ega edi: yangi markazlashgan va kuchli davlat uchun faqat sust mudofaa vazifasini bajargan devor endi zarur emas edi. Somoniylar chegaralarni devor bilan emas, balki qudratli armiya va faol tashqi siyosat orqali himoya qilishni afzal ko'rdi. Shu tariqa, Kampirak devori asta-sekin xarobaga aylana boshladi[7].

Shunday qilib, Kanpirak devori bugungi kunda nafaqat qadimiy xaroba sifatida qiziqish uyg'otadi, balki o'zbek davlatchiligi tarixining muhim bosqichini o'zida aks ettiruvchi yodgorlikdir. U sulolalar to'qnashuvi, mahalliy xalqning ozodlik uchun kurashi, ajdodlarimizning bunyodkorlik salohiyati va siyosiy mohirlik timsoli sifatida o'rganilmoqda. Devor qoldiqlari bugun bizga tarixni faqat kitoblar orqali emas, balki Vatanimiz tuprog'ida, hatto asrlar changi ostida qolgan toshlarda ham his qilish imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Kampirak devori Buxoro vohasining tarixiy, madaniy va siyosiy merosida muhim ahamiyatga ega. U o'z davrida hududni himoya qilish, ichki qo'zg'olonlarni bostirish va mahalliy aholi xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynagan. Devorning barpo etilishi va undan keyingi taqdiri Movarounnahrda siyosiy o'zgarishlar, sulolalar hokimiyati va mudofaa strategiyalaridagi farqlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Bugungi kunda Kampirak devori xarobasi sifatida mavjud bo'lsa-da, u ajdodlarimizning mudofaa sohasidagi yuksak tajribasi, bunyodkorlik salohiyati va Vatanini himoya qilishga bo'lgan fidoyiligini namoyon etadi. Shu bilan birga, devor Markaziy Osiyo tarixini o'rganish va siyosiy-iqtisodiy jarayonlarni tushunishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Kampirak devori shunday qilib, faqat



me'moriy inshoot emas, balki ajdodlarimizning tarixiy tafakkuri va siyosiy donoligining timsoli sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. X.Po'latov. Shaharsozlik tarixi. – Toshkent, "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008 – 293 b.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kampirak>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kampirak_devori
4. Наршахий Бухоро тарихи. –Тошкент, Узбекистон ССР «ФАН» нашриети, 1966 – 120 б.
5. „Kampirak devori“, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi: 4-jild (Zebunniso – Konigil). Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2002 – 704-bet.
6. Sultonov F, Bozorboyev F. O'rta asrlar tarixi (O'zbekiston tarixi). "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi" nashriyoti, 2007 – 428 b.
7. https://uza.uz/oz/posts/kanpirak-devori-buxoro-vohasining-qadimiy-qalqoni_769594